ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR G‘AZALLARIDA YURT SOG‘INCHINING AKSI

N.N.Imamnazarova

Toshkent davlat agrar universiteti akademik litseyining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Boburning ruboiylarida o‘z tug‘ilib o‘sgan yurtini tashlab ketganligi, unga qaytib bora olmasligi sababli ko‘nglida qolgan armonlari haqida so‘z boradi. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” memuar asaridan hamda ruboiylardan olingan misollar orqali muallif ko‘nglidagi Vatan o‘z vataniga sog‘inch masalasi ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, ruboiy, “Boburnoma”, Vatan sog‘inchi, armon.

Zahiriddin Muhammad Bobur rang-barang mavzularda ruboiylar yaratdi. Uning lirikasi asosiy mavzusini Vatan sog‘inchi, ona diyorga qaytish istagi tashkil qiladi. Vatanidan uzoqda, Hind diyorida, bo‘lishiga qaramasdan o‘z yurtiga qaytish istagi bir daqiqa ham tinchlik bermaydi. Bobur ruboiyning tengsiz namunalarini yaratdi. Uning ruboiylari mukammal, har taraflama to‘la-to‘kis she`riy asarlardir. Ruboiylarida shoir o‘z hayotinig baxtli lahzalari va achchiq-chuchuk kunlaridan so‘z ochadi. Bundan tashqari, ko‘rgan-bilgan voqealari asosida “Boburnoma” asarini ham yozib qoldirgan. “Boburnoma”ning yozilishi haqida muallif shunday deydi: “Bo‘lgan voqealarni rost yozganman. Chunki bu asarda shu narsa lozim qilinganki, har so‘zning rosti bitiladi va har ishning aynan qanday voqe bo‘lganligi shunday aytiladi”. [2:3]Bobur Andijon va Samarqandni ikki marta qo‘lga kiritib, ikki marta ham tashlab chiqishga majbur bo‘ladi. Ikkinchi marta Andijonga ega bo‘lgach,o‘z odamlarinig mol-mulklarini Jahongir Mirzo tarafdorlaridan qaytarib olish talablariga ko‘nib, bu haqida farmon beradi va xato qilib Andijondan yana mahrum bo‘ladi. Bu haqida “Boburnoma”da shunday yozadi: “Jahongir Mirzodek g‘anim yonimizda o‘tirganda elni bunday hurkitmoqni hech ma`nosi yo‘q edi. Mamlakatlakatlarni egallash va yurt saqlashda ba`zi ishlar yuzaki qaraganda ma`qul va asosli ko‘rinadi. Biroq har ishning zaminida yuz ming mulohaza vojib va lozimdir. Ushbu mulohazani hukm qilganimizdan qanchalik g‘avg‘o va to‘polonlar sodir bo‘ldi. Axir Andijondan ikkinchi marta chiqib ketishimizga ushbu puxta o‘ylanmagan hukmimiz sabab bo‘ldi”. [2:109] Shoir quyidagi ruboiyni yozgan vaqtlari Samarqandni ikki marta olib, ikki marta ham tashlab chiqishga majbur bo‘lgan vaqtlari edi. Andijondan ham ayrilgan, Vatani xiyonatchilar qo‘liga o‘tgan, 10-15 yigiti bilan 2-3 yil tog‘-u toshlarda sarson bo‘lib yuradi. Va nihoyat, u qaror qildi. Amudaryodan o‘tib jangsiz Kobulni egallaydi. So‘ng bir hamla bilan G‘aznani qo‘lga kiritadi. Shunday bo‘lsa-da, ko‘ngli Amudaryoning narigi tomonida, ona yurtida qoladi.

Ko‘ngli tilag‘an murodig‘a yetsa kishi,

Yo barcha murodlarin tark etsa kishi.

Bu ikki ish muyassar bo‘lmasa olamda

Boshini olib bir sorig‘a ketsa kishi [1:108]

Bobur o‘z yurtida o‘zi xohlagandek davlat qurolmadi va oqibat boshini olib ketishga majbur bo‘ldi. U o‘z maqsadlari uchun harakat qiladi. Inson umri yillarning uzunligi bilan emas, balki erishgan maqsadlari bilan o‘lchanadi. Maqsad bo‘lsa-yu, unga erisholmasa umrning mazmuni

yo‘qoladi, xiralashadi. 1930-yili fransuz olimi Fernard Grenardning “Bobur –Hind imperiyasining asoschisi” nomli risolasi nashr etildi. Kitob 10 bobdan iborat bo‘lib, unda Boburning bolaligidan boshlab umrining oxiriga qadar boshdan kechirgan voqealari tarixiy-badiiy tarzda yozib borilgan. Grenard ushbu risolasida Boburning Samarqandni tashlab chiqqan, Andijonni ham qo‘ldan chiqargan holatini quyidagicha tasvirlaydi: “Orzu-umidlari chilparchin bo‘lgan Bobur orqaga qaytadi. Bahor fasli edi, u tog‘asi yurti –Toshkent tomon yo‘l oldi. U ezilgan ko‘ngliga taskin berish niyatida o‘zining quyidagi misra bilan boshlanuvchi g‘azalini yozadi:

Jonimdan o‘zga yori vafodor topmadim,

Ko‘nglimdan o‘zga yori vafodor topmadim.

Boburning Hirot va Kobuldagi hayoti Grenard ijodida ancha jonli tasvirlanadi. Bu yerda Bobur mol-mulk uchun harakatdagi shoh emas, balki qalbi go‘zallikka oshno shoir sifatida namoyon bo‘ladi. Bobur yana bir ruboiysida shunday yozadi:

Beqaydmen-u xarobi siyim ermasmen,

Ham mol yig‘ishtirur laim ermasmen

Kobulda iqomat etdi Bobur dersiz,

Andoq demangizlarkim muqim ermasmen. [1:109]

Bu ruboiy bilan Bobur nima demoqchi? Qayd-kishan, beqayd-kishansiz, siym-oltin-kumush, laim –gado. Demak, shoir oltin-kumush dardida uyma-uy mol yig‘ishtirib yuradigan gadolardan emasman. Bobur ketdi, Kobulda qoldi dersiz, yo‘q, unday demang, men, albatta, yurtimga qaytaman demoqchi bo‘ladi.

Davron meni o‘tkardi sar-u somondin

Oyirdi meni bir yo‘la xonumondin

Gah boshima toj, gah baloyi-ta’na

Nelarki boshimg‘a kelmadi davrondin. [1:113]

Bu ruboiy bilan shoir davron boshimga goh yaxshi, goh yomon kun soldi, meni bir yo‘la Vatandan ayirdi demoqchi. Goh boshima toj, goh baloyi-ta’na jumlalari bilan Samarqandni qo‘lga olib, yana tashlab chiqqan holati tasvirlangan. Bobur bobosi Amir Temur poytaxt qilgan mashhur shahar Samarqandni birinchi marta egallaganda quvonchi cheksiz edi vabu haqida “Boburnoma” da shunday yozadi: “Samarqand taxtig‘a o‘lturg‘och Samarqand beklarini burungidek rioyat va inoyat qildim. Bizning bila bo‘lg‘on beklarni ham hollarig‘a yarasha tarbiyat va shafqat qildim.” [2:88]Afsuski, g‘oliblik nashidasi uzoq davom etmaydi. Bobur atrofidagilarning, ayniqsa, Uzun Hasanning xiyonati tufayli Samarqandni qo‘ldan chiqaradi. Zahiriddin Muhammad Boburning bolaligi haqida roman yozgan, “Boburnoma” ning ingliz tarjimoni Uilyam Erskin Boburni Osiyo podshohlariga qiyosan shunday baholaydi: “Saxovati va mardligi, iste’dodi, ilm-fan, san’atga muhabbati va ular bilan muvaffaqiyatli shug‘ullanishi jihatidan Boburga teng keladigan birorta podshoh topilmaydi.”

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Adabiyot 5-sinf darslik. II qism Toshkent –2015.174 bet.

2.Z.M.Bobur “Boburnoma” Toshkent-2015. 704 b.

3.www. Ziyonet. uz4.Tafakkur.uz

4. V.Zohidov. Boburning faoliyati va ilmiy-adabiy merosi haqida. Kitobda: Bobir. Bobirnoma. -T.:1960;

5.Azimdjanova S. Indiyskiy divan Babura. T.: Fan, 1966.

6. X.Nazarova."Boburnoma" tilining sintaktik qurilishi. Dokt. diss. — T.: 1980;

7. Stebleva I.V. Semantika gazeley Babura. — M.: 1983.

8. H.Qudratullaev. Boburning adabiy-estetik qarashlari. -T.: Fan, 1983;

9. S.Hasanov. Boburning „Risolayi aruz— asari. -T.:1986;

10. Xayriddin Sulton. Boburiynoma. -T.:1996;

11. G‘aybulloh as-Salom, N.Otajon. Jahongashta „Boburnoma—. — T.:1996